


## 55. Uch xonali sonlarni qo'shish va ayirish

Yondosh mavzu:  
aktyorlar va xonandalar

Xonalar  
o'nlikdan ayirish



To'rtburchaklar nechta?



1. Ifodalarning qiymatlarini o'sish tartibida joylashtiring va qaysi kasb egalari aktyorlarga sahnada matnни yodga olishiga yordam berishini bilib oling.

$900 - 376$

Y

$540 + 405$

R

$173 + 185$

S

$678 - 217$

U

$613 + 232$

O

$645 - 173$

F

$215 + 279$

L



2. Spektakl uch qismdan – aktdan iborat. Birinchi aktda aktyor matnning 168 qatorini, ikkinchisida 172 qatorini, uchinchisida 224 qatorini aytishi kerak.
- a) Aktyor jami necha satrni yodlashi kerak?
- b) Aktyor allaqachon 495 qatorni yod olgan. U yana necha satrni yod olish kerak?



3. Qo'g'irchoq teatrida 200 ta joy bor. Spektakl uchun 176 ta chipta sotildi. Qancha bo'sh joy qoldi?



4. Ifodalarning qiymatlarini ustun ko'rinishida hisoblang.

$567 + a, \text{ bunda } a = 183;$

$890 - b, \text{ bunda } b = 154;$

$c - d, \text{ bunda } c = 400, d = 137.$

93



5. Tenglamalarni yeching.

$x + 765 = 926$

$900 - y = 368$

$z - 136 = 485$

## 55. Uch xonali sonlarni qo'shish va ayirish



6. Soyalar teatri – bu ajoyib manzara. Unda soyalar aktyorlar sifatida ishlatiladi. Agar qo'llar to'g'ri qovushtirilsa va ular chiroq va devor orasiga joylashtirilsa, devorda tegishli soya paydo bo'ladi. Qaysi shakl qaysi soyani berishini topishga harakat qiling.



7. Filmda 600 nafar kishi ishladi, ulardan 157 nafari turli rollarning aktyorlari, 85 nafari rassomlar va qolganlari boshqa kasb egalari. Filmda qancha boshqa kasb egalari ishlagan?



8. Artist ajoyib xotiraga ega bo'lishi kerak. Rasmlarga bir minut qarang. Kitobni yoping. Shakllar qanday tartibda joylashganini yodga oling.



9. Misollarni yeching, javoblarni o'sish tartibida joylashtiring va spektakl uchun zarur bo'lgan narsalarni yasaydigan odamning nomini bilib oling:

|          |             |          |             |          |             |
|----------|-------------|----------|-------------|----------|-------------|
| <b>A</b> | $395 + 281$ | <b>B</b> | $900 - 789$ | <b>T</b> | $850 - 432$ |
| <b>O</b> | $167 + 578$ | <b>R</b> | $220 + 680$ | <b>F</b> | $851 - 148$ |
|          |             | <b>U</b> | $198 + 205$ |          |             |



10. Diskka joriy yilning 300 ta eng yaxshi qo'shiqlari yozilgan. Ularning 143 tasi o'zbek tilida, 78 tasi rus tilida, qolganlari esa ingliz tilida. Qaysi qo'shiqlar ko'p va qancha ko'p?